V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MERAJOVA SHAHLO BERDIYEVNA

ARALASH PARABOLO-GIPERBOLIK TIPDAGI TENGLAMALAR UCHUN MANBANI ANIQLASH TESKARI MASALALARINING KORREKTLIGINI TADQIQ ETISH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

UDK: 517.958

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MERAJOVA SHAHLO BERDIYEVNA

ARALASH PARABOLO-GIPERBOLIK TIPDAGI TENGLAMALAR UCHUN MANBANI ANIQLASH TESKARI MASALALARINING KORREKTLIGINI TADQIQ ETISH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestastiya komissiyasida B2022.4.PhD/FM695 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (https://kengash.mathinst.uz) va «Ziyonet» ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Karchevskiy Andrey Leonidovich fizika-matematika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil " 14 " mart soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.:(+99871)- 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (156-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.:(+99871) 207-91-40)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil " 28 " fevral kuni tarqatildi.

(2023 yil " 28 " fevraldagi dagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f-m.f.d., professor

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A.A'zamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
f-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda aralash tipdagi xususiy hosilali differensial tenglama uchun manbani aniqlash teskari masalalarining korrektligini tadqiq qilishga keltiriladi. Bugungi kunda xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun teskari masalalar geologiya, elektrodinamika, gazodinamika, to‘lqin tarqalish jarayonlari, geofizika va boshqa ko‘plab sohalardagi tadqiqotlarning eng ko‘p o‘rganilayotgan asosiy masalasi hisoblanadi. To‘g‘ri masala yechimi haqida qo‘shimcha ma’lumotga asoslanib, teskari masala yechimini aniqlash, to‘g‘ri va teskari masalalarni sonli yechish masalasiga doir tadqiqotlarni olib borish bugungi kunda matematik fizikaning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahon miqyosida matematik fizikaning eng tez rivojlanayotgan sohasi – teskari masalalarni tadqiq qilish usullariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu soha fizika va texnik fanlardagi eng muhim muammolardan biriga aylandi, chunki ularni hal qilish bevosita aniqlab bo‘lmaydigan parametrlarni topishga imkon beradi. Bu yo‘nalish juda ko‘p sohalarda tadbiqqa ega. Aralash tipdagi tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar qo‘llanish nuqtai nazaridan dolzarbdir. Shunday qilib, aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun qo‘yilgan to‘g‘ri va teskari masalalarning korrektligini isbotlash zarurati bor. Tadbiqlarda aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun qo‘yilgan to‘g‘ri va teskari masalalarni yechimini topish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi. Aynan shu tipdagi dolzarb ilmiy tadqiqotlar ushbu dissertatsiya ishida qaraldi.

Respublikamizda fundamental fanlardan ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan matematik fizikaning dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, oxirgi yillarda gazodinamikadagi jarayonlarni ifodalovchi aralash parabolo-giperbolik tipdagi differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni tadqiq etish, ular uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni yechish orqali amaliy muammolarni hal etishga alohida e’tibor qaratildi. Aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun manbani aniqlash teskari masalalari yechimining mavjudligi, yagonaligini isbotlashga va uni sonli yechishga oid salmoqli natijalarga erishildi. “Differensial tenglamalar, matematik fizika va funksional analiz” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi[1]. Bu borada matematik fizikaning aralash tipdagi tenglamalar uchun teskari masalalar nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tahkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-son Qarori va 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘p hollarda ma’lum tabiat hodisalarini o‘rganish matematik fizikaning tenglamalari deb ataladigan xususiy hosilali differensial tenglamalarning yechimlarini topishga olib kelinadi. Matematik fizika tenglamalari uchun klassifikatsiyalash mavjud. Giperbolik, elliptik va parabolik tipdagi tenglamalarga nisbatan aralash tipdagi tenglamalar nazariyasi kam tarixga ega. Ikkita erkli o‘zgaruvchili aralash tipdagi tenglamalar birinchi marta italyan matematiklari F.Trikomi va M. Chibrario tomonidan tizimli tadqiq qilingan. Bundan tashqari, aralash tipdagi tenglamalar ko‘plab matematiklar tomonidan o‘rganilgan, xususan, M.A.Lavrentyev, A.V.Bistadze, V.N.Vragov, M.S.Salaxitdinov va T.D.Jo‘rayev ilmiy maktablarida katta e’tibor berilgan. Aralash oqimlar odatda aralash tipdagi elliptiko-giperbolik tipdagi tenglamalar bilan aniqlanadi, shuning uchun transtovushli gaz dinamikasi masalalarini o‘rganish, aralash tipdagi tenglamalar nazariyasining rivoji bilan chambarchas bog‘liq.

Aralash tipdagi tenglamalar xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasining muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, amaliy xarakterdagi ko‘plab masalalarni hal qilishda uchraydi. Ushbu tipdagi tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar aniq bir tipdagi tenglamalar uchun qo‘yilgan mos masalalarga nisbatan kamroq o‘rganilgan. Shunga qaramay, bunday masalalar amaliy tadbiq nuqtai nazaridan dolzarbdir. Masalan, A.N.Tixonov va A.A.Samarskiy ishlarida bir jinsli muhitda, uning o‘tkazuvchanligi past bo‘lgan taqdirda, elektromagnit maydon kuchlanganligi to‘lqin tenglamasini qanoatlantiradi, ammo nisbatan yuqori o‘tkazuvchanlik holatida, elektromagnit maydon kuchlanganligi uchun ko‘rsatilgan qiymat issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasini qanoatlantiradi. I.M.Gelfand va F.I.Frankl ilmiy ishlarida gaz dinamikasiga oid ko‘rib chiqilgan hodisa: g‘ovakli devorlari bo‘lgan yopiq kanaldagi gaz harakati to‘lqin tenglamasi bilan, uning tashqarisida esa diffuziya tenglamasi bilan tavsiflanadi. Aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalarga qo‘yilgan to‘g‘ri masalalar F.Trikomi, G.Fiker, T.D.Jo‘rayev, K.B.Sabitov, B.I.Islomov va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan. To‘rtburchak sohada aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun boshlang‘ich chegaraviy masalalarda o‘ng tomonni yoki boshlang‘ich funksiyani aniqlashning teskari masalalari K.B. Sabitov, E.M. Safin, S.N. Sidirov va boshqalarning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu tadqiqotlarda teskari

masalalar yechimlarining mavjudligi va yagonaligi spektral usul asosida isbotlangan.

Ikkinchi tartibli xususiy hosilali differensial parabolik, giperbolik va elliptik tipdagi tenglamalar uchun tenglama koeffistientlarini, o‘ng tomonlarini aniqlashning turli xil teskari masalalari V.G.Romanov, A.M.Denisov, S.I.Kabanixin, R.R.Ashurov, S.Z.Djamolov, A.I.Prilepko, D.G.Orlovskiy, I.A.Vasin va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan. Giperbolik integro-differensial tenglamalarda yadroni tiklash teskari masalalari V.G.Romanov, D.K.Durdiyev, J.D.Totiyeva, A.A.Raxmonov, U.D.Durdiyev, Z.R.Bozorov va boshqalar ilmiy ishlarida o‘rganilgan. Boshqa tomondan, juda oz sonli ishlar teskari masalalarni sonli yechish usullariga bag‘ishlangan. Ushbu yo‘nalishda V.G.Romanov, V.A.Dedok, A.A.Duchkov, A.L.Karchevskiylarning ilmiy ishlarini ta’kidlash mumkin. Differensial tenglamalarning har bir sinfi uchun mos masalalar mavjud. Ushbu masalalarning o‘ziga xos xususiyati ularning korrektligidir. Ushbu dissertatsiya ishida aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun manbani aniqlash teskari masalalarining korrektligi o‘rganilgan va sonli yechilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining M-02.2018 raqamli “Matematik fizikaning teskari masalalari” (2020-2022 yy.) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning korrektligini isbotlash hamda ularni sonli yechishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

parabolo-giperbolik tipdagi tenglamaga qo‘yilgan aralash masala uchun ayirmali sxema qurish, chekli ayirmali sxemaning turg‘unligini isbotlash va approksimatsiya tartibini aniqlash;

ikki o‘lchamli aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamaga silindrik sohada qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masala va teskari masalalar yechimining yagonaligi va mavjudligini isbot qilish;

aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamaga to‘g‘ri to‘rtburchakli sohada qo‘yilgan teskari masalaning bir qiymatli yechilishini isbot qilish;

aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun manbani aniqlash teskari masalasini sonli yechish algoritmlarini qurish.

Tadqiqotning ob’ekti. Bir o‘lchovli va ikki o‘lchovli aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun teskari masalalardan iborat.

Tadqiqotning predmeti. Aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar, Furye-Bessel va Furye qatorlari, xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya natijalarini hal qilishda funksional analiz, differensial tenglamalar, xususiy hosilali differensial tenglamalar va integral

tenglamalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan. Furye, Furye-Bessel qatorlarining yaqinlashish shartlari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamaga qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masala uchun ayirmali sxema qurilgan, hamda chekli ayirmali sxemaning turg‘unligi va approksimatsiya tartibi haqidagi teoremalar isbotlangan;

Bessel operatorli aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun noma’lum manbani topishga oid teskari masala yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan;

aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamaga qo‘yilgan teskari masalaning bir qiymatli yechilishi isbotlangan;

aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun manbani aniqlash teskari masalasini sonli yechish uchun uchta algoritmlar qurilgan va bu algoritmlarni aprobatsiya qilish uchun bir qator misollar keltirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Tadqiqot natijalaridan seysmologiyada, gazodinamikada hamda yuqori bosqich bakalavriat va magistratura talabalari uchun matematik fizika tenglamalari fanidan maxsus kurslar o‘qishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Matematik analiz, funksional analiz, differensial tenglamalar, xususiy hosilali differensial tenglamalar, integral tenglamalar va teskari masalalar nazariyasi usullaridan foydalanilganligi hamda matematik mulohazalarning qat’iyligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati matematik fizikaning aralash tipdagi tenglamalari uchun teskari masalalar nazariyasini yanada rivojlantirishi, bir o‘lchamli va ikki o‘lchamli bo‘lgan hollarda manbani aniqlash usullari qurilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati seysmologiyada, gazodinamikada tadbiq etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun manbani aniqlash teskari masalalarining korrektligiga oid olingan natijalar asosida:

Aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun noma’lum manbani aniqlash to‘g‘ri va teskari masalalarining yechimni mavjud va yagonaligidan, aralash masalani sonli yechishdan OT-F4-14 raqamli “Suyuqlik oquvchi yer osti egri chiziqli quvurning tashqi kuchlari ta’sirida kuchlanish-deformatsiyalar holatini tadqiq qilish nazariyasini rivojlantirish va hisoblab chiqish” mavzusidagi fundamental loyihasida qovushqoq suyuqlik oquvchi ko‘p qatlamli kompozit quvurlar harorat va dinamik yuklanishlar ta’sirini aniqlashda qo‘llanilgan (Buxoro muhandislik-texnologiya institutining 2023 yil 25 yanvardagi № 01/04-87/125-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanishi qovushqoq suyuqlik oquvchi ko‘p qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli bo‘laklarining chiziqli bo‘lmagan dinamik kuchlanish-deformastiya holatini tekshirish imkonini bergan;

aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamaga qo‘yilgan teskari masalaning bir qiymatli yechilishi va tenglama uchun manbani aniqlash teskari masalasini yechish algoritmlaridan Ar05133873 raqamli “Gravimetriyada qo‘llaniladigan kasr tartibli elliptik operatorlarning matematik modellari uchun chiziqli bo‘lmagan teskari masalalarni yechishning sonli usullari va parallel algoritmlari” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida kasr tartibli elliptik operatorning birinchi tartibli evolyutsion tenglamasi uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni yechishda foydalanilgan (Xo‘ja Ahmad Yasaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universitetining 2022 yil 28 dekabrdagi №04/4173-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo‘llanishi kasr tartibli elliptik operatorning birinchi tartibli evolyutsion tenglamasi uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni sonli yechish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 7 ta respublika, jami 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestastiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalarini himoya qilishda tavsiya etilgan milliy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan 2 ta ilmiy maqola SCOPUS bazasidagi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan va 4 tasi Respublika ilmiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 90 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy va mahalliy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Dastlabki ma’lumotlar”** deb ataladi. Bu bobda hisoblash usullari va Furye-Bessel qatorlaridan dissertatsiya natijalarini isbotlashda foydalanilgan asosiy tushunchalar keltirilgan. Shuningdek, aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamaga qo‘yilgan birinchi chegaraviy masala uchun turg‘un chekli ayirmali sxema qurilgan va qurilgan ayirmali sxemaning approksimatsiyasi va turg‘unligi haqidagi teoremalar isbotlangan.

$D = \{(x,t): 0 < x < l,\ 0 < t < T\}$ sohada quyidagi tenglamani qaraymiz:

$$Lu = K(t)u_{tt} - H(x)u_{xx} + a(x,t)u_t + b(x,t)u_x + c(x,t)u = f(x,t), \quad (1)$$

bu yerda $K(t), H(x), a(x,t), b(x,t), c(x,t)$ – berilgan funksiyalar bo‘lib, quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

1) $K(t) \in C^2([0,T]), t \neq 0$ da $K(t) > 0$ va $K(0) = 0$;

2) agar $x \in (0,l)\ H(x) \in C^2([0,l])$ bo‘lsa, u holda $H(x) > 0$ va $H(0) = H(l) = 0$;

3) $a(x,t), b(x,t) \in C^1(\bar{D}), c(x,t) \in C(\bar{D})$;

4) $\beta(x) = a(x,0) - K_t(0) > 0, x\epsilon[0,l]$;

C – uzluksiz funksiyalar fazosi, $\bar{D}$- D sohaning yopig‘i, $\Gamma = \partial D$ - D sohaning chegarasi.

(1) tenglama uchun quyidagi aralash masalani qaraymiz:

Aralash masala: D sohada (1) tenglamaning shunday yechimi aniqlansinki, u quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

$$u(x,0) = 0, u_t(x,0) = 0,\ x\epsilon[0,l], \tag{2}$$

$$u(0,t) = 0,\ \ u(l,t) = 0, t > 0. \tag{3}$$

(1)-(3) aralash masalani yechish uchun taqribiy (sonli) usuldan foydalanamiz. Ushbu masalaga chekli-ayirmalar usulini qo‘llaymiz.

$\bar{D} = \{(x,t): 0 \le x \le l,\ 0 \le t \le T\}$ sohada, qadamlari $\Delta t = h_t, \Delta x = h_x,$ $(T = mh_t, l = nh_x)$ bo‘lgan ayirmali to‘rni quramiz.

u_i^k orqali aralash masalaning (t^k, x_i) nuqtadagi taqribiy yechimini belgilaymiz. Bu yerda (t^k, x_i) – $t = t^k = kh_t, x = x_i = ih_x$ to‘g‘ri chiziqlarning kesishishidan hosil bo‘lgan tugun nuqta. Siljish va ayirmali $\varphi, \psi, \tau, \bar{\tau}, \xi, \bar{\xi}$ operatorlarni quyidagi shaklda kiritamiz:

$$\varphi u_i^k = u_i^{k+1} = u^{k+1} = \hat{u},\ \ \varphi^{-1}u_i^k = u_i^{k-1} = u^{k-1} = \check{u},\ \ \psi^{\pm 1}u_i^k = u_{i\pm 1}^k = u_{i\pm 1},$$

$$\tau = \varphi - 1, \qquad \bar{\tau} = 1 - \varphi^{-1}, \qquad \xi = \psi - 1, \qquad \bar{\xi} = 1 - \psi^{-1}, \qquad r = \frac{\Delta}{\Delta_x}.$$

(1)-(3) masalani quyidagi chekli-ayirmali sxema bilan approksimatsiyalaymiz:

$$L^h u \equiv \left[K^k \frac{\tau\bar{\tau}}{{h_t}^2} - H_i \frac{\xi\bar{\xi}}{h_x^2} + a_i^k \frac{\bar{\tau}}{h_t} + b_i^k \frac{\bar{\xi}}{h_x} + c_i^k\right] u = f_i^k, k = \overline{1,m}; i = \overline{0,n}, \tag{4}$$

$$u_i^0 = 0, u_i^1 = 0, u_0^k = u_n^k = 0, i = \overline{0,n}, k = \overline{0,m}. \tag{5}$$

(4)-(5) ayirmali sxema yopiq emas. Bu uchun qo‘shimcha chegaraviy va boshlang‘ich shartlarni berish talab qilinadi. Oddiylik uchun, quyidagi shartlardan foydalanamiz:

$$u_{-1}^k = u_0^k, \qquad u_{n+1}^k = u_n^k, \qquad k = \overline{0,m.} \tag{6}$$

(4)-(6) ayirmali sxema approksimatsiya tartibi aniqlanib, quyidagi teorema isbotlangan.

1-teorema. (4)-(6) *chekli-ayirmali sxema* (1)-(3) *aralash masalani* h_t, h_x *ga nisbatan birinchi tartib bilan approksimatsiyalaydi va u uchun quyidagi baho o‘rinli*

$$\|\delta f\| \le O(h_t + h_x).$$

Qurilgan ayirmali sxemaning turg‘unligi uchun quyidagi teorema o‘rinli.

2-teorema. *Agar ayirmali sxemaning qadamlari uchun quyidagi shartlar bajarilsa*

$$h_t < \min\left(\frac{rK}{M_2}, \frac{2\delta_0}{M_1}\right), \qquad h_x < \frac{2H}{M_3}, \qquad i = \overline{1, N-1}, \qquad k = \overline{-m+1,0},$$

u holda (1)-(3) aralash masala uchun qurilgan (4)-(6) ayirmali sxema turg‘un va u uchun

$$h_t \cdot h_x \sum_{k=1}^{m-1}\sum_{i=1}^{n-1}(L^h u)(2u) \geq h_t \cdot h_x \sum_{k=1}^{m-1}\sum_{i=1}^{n-1}\left\{(2K - h_t M_2)\left(\frac{\tau u}{h_t}\right)^2 + \right.$$

$$\left. + (2H - h_x M_3)\left(\frac{\xi u}{h_x}\right)^2 + (2\delta_0 - h_t M_1)u^2\right\}$$

baho o‘rinli, bu yerda M_i, $i = \overline{1,3}$ – $|a|, |b|, |K'(t)|, |H'(x)|, |a_{tt}|, |b_{xx}|, \left|K^{(4)}(t)\right|, \left|H^{(4)}(x)\right|$ *orqali chegaralangan musbat sonlar.*

Simulyatsiyalangan berilganlar uchun masala qaralgan va u sonli yechilgan. $\max_{i,k}|y - M| < 10^{-3}, i = \overline{0,n}, k = \overline{0,M}$ – sonli usulning absolyut xatoligi. Qo‘yilgan masalani sonli yechish uchun matritsaviy haydash usulidan foydalanildi.



y

1-rasm: *y – taqribiy yechim, M – aniq yechim.*



M

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun teskari masalalar”** deb nomlanadi, unda Bessel operatorli va turli koeffistientli aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun noma’lum o‘ng tomonni aniqlashga doir teskari masalalar o‘rganilgan. O‘zgaruvchilarni ajratish metodi asosida, ushbu masalalar noma’lum funksiyalarni ortonormallangan nolinchi tartibli birinchi tur Bessel va sinus funksiyalari bo‘yicha Furye va Furye-Bessel qatorlariga yoyilmasining koeffistientlariga nisbatan oddiy differensial tenglamalarga qo‘yilgan masalalarga keltiriladi. Qo‘yilgan masalalar yechimlari uchun yagonalik va mavjudlik teoremalari isbotlangan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida Bessel operatorli aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamaga qo‘yilgan teskari masala o‘rganilgan.

$G = \{(x, y, t): x^2 + y^2 < 1,\ -\alpha < t < \beta\}$ silindrda quyidagi aralash parabolo-giperbolik tenglamani qaraymiz:

$$\begin{cases} Du_t - \Delta u = f\left(\sqrt{x^2+y^2}\right), & t > 0, \\ c^2 u_{tt} - \Delta u = f\left(\sqrt{x^2+y^2}\right), & t < 0, \end{cases} \tag{7}$$

bu yerda α, β, c, D – berilgan musbat sonlar, Δ - x va y o‘zgaruvchilar bo‘yicha Laplas operatori.

Quyidagi masalani qaraylik: Shunday $u(x,y,t)$ va $f\left(\sqrt{x^2+y^2}\right)$ funksiyalar topilsinki, ular G sohada (7) tenglamani va quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

chegaraviy shartlar:

$$\lim_{x^2+y^2\to 0} \langle (x,y), \nabla u \rangle = 0,\ u|_{x^2+y^2=1} = 0, -\alpha \le t \le \beta, \tag{8}$$

boshlang‘ich shart:

$$u(x,y,-\alpha) = \varphi\left(\sqrt{x^2+y^2}\right),\ \ x^2+y^2 \le 1, \tag{9}$$

$t = 0$ skleyka sharti:

$$\lim_{t\to -0} u(x,y,t) = \lim_{t\to +0} u(x,y,t),$$

$$\lim_{t\to -0} \frac{\partial u(x,y,t)}{\partial t} = \lim_{t\to +0} \frac{\partial u(x,y,t)}{\partial t},\ x^2+y^2 \le 1, \tag{10}$$

bu yerda $\varphi(\cdot)$ – berilgan yetarlicha silliq funksiya.

$G_+ = G \cap \{t > 0\}, G_- = G \cap \{t < 0\}$ belgilash kiritamiz.

1-ta’rif. *(7)-(10) masalaning yechimi deb,* $C(\bar{G}) \cap C^1(G) \cap C^{2,1}_{x,t}(G_+ \cup \{t = \beta\}) \cap C^2(G_- \cup \{t = -\alpha\})$ *sinfga tegishli bo‘lib,* G *sohada (7) tenglamani va (8)-(10) shartlarni qanoatlantiruvchi* $u(x,y,t)$ *funksiyaga aytiladi*.

Agar φ, f funksiyalar ma’lum bo‘lsa, u vaqtda (7)-(10) munosabatlardan $u(x,y,t)$ yechimni topish masalasiga to‘g‘ri masala deyiladi.

Endi silindrik sohada teskari masalani qo‘yamiz.

Teskari masala: Agar (7) - (10) to‘g‘ri masalaning yechimi haqida quyidagi qo‘shimcha ma’lumot berilgan bo‘lsa:

$$u(x,y,\beta) = \psi\left(\sqrt{x^2+y^2}\right), \tag{11}$$

$f\left(\sqrt{x^2+y^2}\right)$ – funksiya aniqlansin.

2-ta’rif. *(7)-(11) teskari masalaning yechimi deb mos ravishda* $C(\bar{G}) \cap C^1(G) \cap C^{2,1}_{x,t}(G_+ \cup \{t = \beta\}) \cap C^2(G_- \cup \{t = -\alpha\})$ *va* $C[0,1]$ *sinflarga tegishli bo‘lib, (7)-(11) tengliklarni qanoatlantiruvchi* $u(x,y,t)$ *va* $f\left(\sqrt{x^2+y^2}\right)$ *funksiyalarga aytiladi.*

(7) tenglamaning o‘ng tomoni, (9) va (11) ga kiritilgan funksiyalar $\rho = \sqrt{x^2+y^2}$ masofaga bog‘liq, shuning uchun $u(x,y,t) = u(\rho,t)$, $\rho = \sqrt{x^2+y^2}$, ya’ni biz osesimmetrik holga kelamiz.

Qutb koordinatalar sitemasida (7)-(11) **teskari masala** quyidagicha ifodalanadi: $G := \{(\rho,t) : 0 < \rho < 1, -\alpha < t < \beta\}$ sohada shunday $u(\rho,t)$ ва $f(\rho)$ funksiyalar aniqlansinki, ular quyidagi aralash parabolo-giperbolik tenglamani

$$\theta(t) D \frac{\partial u}{\partial t} + \theta(-t) c^2 \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = \frac{\partial^2 u}{\partial \rho^2} + \frac{1}{\rho}\frac{\partial u}{\partial \rho} + f(\rho),\ (\rho,t) \in (0,1) \times (-\alpha,\beta), \tag{12}$$

(bu yerda $\theta(t)$ — Xevisayda funksiyasi) va quyidagi shartlarni:

chegaraviy shartlar:

$$\lim_{\rho\to 0}\rho\frac{\partial u(\rho,t)}{\partial\rho}=0,\quad u|_{\rho=1}=0,\quad -\alpha\le t\le\beta, \tag{13}$$

$t = 0$ da skleyka sharti:

$$u(\rho,+0)=u(\rho,-0),\lim_{t\to+0}\frac{\partial u}{\partial t}(\rho,t)=\lim_{t\to-0}\frac{\partial u}{\partial t}(\rho,t),\quad 0\le\rho\le 1, \tag{14}$$

boshlang‘ich shartni

$$u(\rho,-\alpha)=\varphi(\rho),\quad 0\le\rho\le 1, \tag{15}$$

shuningdek qo‘shimcha shartni

$$u(\rho,\beta)=\psi(\rho), \tag{16}$$

qanoatlantirsin.

Shunday qilib, (7)-(11) to‘g‘ri masala (12)-(15) munosabatlardan $u(\rho,t)$ funksiyani aniqlashga keltirildi, teskari masala esa $u(\rho,t)$ va $f(\rho)$ funksiyalarni (12)-(16) munosabatlardan foydalanib topish masalasiga keltirildi.

Dastlab (12) tenglamaning xususiy yechimlarini Furye usulidan foydalanib, $f(\rho)=0$ bo‘lganda quyidagi ko‘rinishda qidiramiz:

$$u(\rho,t)=R(\rho)T(t).$$

$R(\rho)$ funksiya uchun:

$$R''(\rho)+\frac{1}{\rho}R'(\rho)+\lambda^2R(\rho)=0, \tag{17}$$

chegaraviy sharti quyidagicha bo‘lgan:

$$\lim_{\rho\to 0}(\rho R'(\rho))=0\,,R(1)=0, \tag{18}$$

masalani hosil qilamiz.

1-izoh. *(17)-(18) masala o‘z-o‘ziga qo‘shma masala.*

(17) tenglamaning yechimi birinchi tur nolinchi tartibli Bessel funksiyalari bo‘ladi:

$$R(\rho)=J_0(\lambda_k\rho),\ k=1,2,3,\ldots$$

Ular (17)-(18) masalaning xos funksiyalari bo‘ladi. (19) chegaraviy shartlardan foydalanib, $J_0(\lambda_k)=0$ tenglamaning musbat ildizlarini, xos sonlarni topamiz. Ular quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\lambda_k=k\pi-\frac{\pi}{4}.$$

Endi qidirilayotgan funksiyani va tenglamaning o‘ng qismini $J_0(\lambda_k\rho)$ funksiyalar bo‘yicha Furye-Bessel qatoriga yoyamiz, ya’ni

$$u(\rho,t)=\sum_{k=1}^{\infty}u_k(t)J_0(\lambda_k\rho), \tag{19}$$

$$f(\rho)=\sum_{k=1}^{\infty}f_kJ_0(\lambda_k\rho), \tag{20}$$

bu yerda

$$u_k(t)=\frac{2}{J_1^2(\lambda_k)}\int_0^1\rho u(\rho,t)J_0(\lambda_k\rho)d\rho,$$

$$f_k = \frac{2}{J^2_{1(\lambda_k)}} \int_0^1 \rho f(\rho) J_0(\lambda_k \rho) d\rho.$$

Qo‘yilgan masalani yechimi uchun quyidagi teorema o‘rinli:

3-teorema. *Agar* (12)-(16) *masalaning yechimi mavjud bo‘lsa, bu yechim* $\alpha = 4cp,\ p \in N$ *yoki* $\alpha = 4c\frac{n}{m},\ n, m \in N,\ EKUB(n,m) = 1$ *va barcha* $\beta > 0$ *qiymatlarda yagona bo‘ladi.*

Bu bobning ikkinchi paragrafida (12)-(16) teskari masala yechimi uchun mavjudlik teoremasi isbotlandi.

$u_k(t)$ va f_k koeffitsiyentlarni (19), (20) ga qo‘yib, formal yechimni quyidagi qatorlar ko‘rinishida olamiz:

$$u(\rho,t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left[\frac{\psi_k - \varphi_k}{\delta_{\alpha,\beta}(k)} e^{-\frac{\lambda_k^2}{D}t} + \psi_k - \frac{\psi_k - \varphi_k}{\delta_{\alpha,\beta}(k)} e^{-\frac{\lambda_k^2}{D}\beta} \right] J_0(\lambda_k \rho),\ \ t > 0, \qquad (21)$$

$$u(\rho,t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left[\frac{\psi_k - \varphi_k}{\delta_{\alpha,\beta}(k)} cos\left(\frac{\lambda_k}{c}t\right) - c\frac{\lambda_k}{D}\frac{\psi_k - \varphi_k}{\delta_{\alpha,\beta}(k)} sin\left(\frac{\lambda_k}{c}t\right) + \right.$$
$$\left. + \psi_k - \frac{\psi_k - \varphi_k}{\delta_{\alpha,\beta}(k)} e^{-\frac{\lambda_k^2}{D}\beta} \right] J_0(\lambda_k \rho), t < 0, \qquad (22)$$

$$f(\rho) = \sum_{k=1}^{\infty} \lambda_k^2 \left[\psi_k - \frac{\psi_k - \varphi_k}{\delta 1_k(\alpha,\beta)} \right] J_0(\lambda_k \rho). \qquad (23)$$

Qatorlarning umumiy hadlari uchun quyidagi baho o‘rinli:

$$max\left\{ \max_{\rho\in[0,1]} |f_k|, \max_{(\rho,t)\in G_+} |u_k(\rho,t)|, \max_{(\rho,t)\in G_-} |u_k(\rho,t)|, \max_{(\rho,t)\in G_+} \left|\frac{\partial u_k(\rho,t)}{\partial t}\right|, \right.$$
$$\left. \max_{(\rho,t)\in G_-} \left|\frac{\partial^2 u_k(\rho,t)}{\partial t^2}\right|, \max_{(\rho,t)\in G_+} \left|\frac{\partial^2 u_k(\rho,t)}{\partial \rho^2}\right|, \max_{(\rho,t)\in G_-} \left|\frac{\partial^2 u_k(\rho,t)}{\partial \rho^2}\right| \right\} \leq$$
$$\leq N \frac{\lambda_k^3}{\lambda_k^{2s-\frac{1}{2}}},$$

bu yerda $N-$ musbat o‘zgarmas.

Berilgan teskari masala yechimi mavjudligi uchun quyidagi teorema o‘rinli:

4-teorema. $\{\varphi(\rho), \psi(\rho)\} \in C^6[0,1]$ *bo‘lib,* $\left|\delta_{\alpha,\beta}(k)\right| \geq \mathrm{C}_0 > 0$ *o‘rinli bo‘lsin, bu yerda* $\delta_{\alpha,\beta}(k) = e^{-\frac{\lambda_k^2}{D}\beta} - \left(cos\left(\frac{\lambda_k}{c}\alpha\right) + \frac{c\lambda_k}{D} sin\left(\frac{\lambda_k}{c}\alpha\right)\right)$. *Shuningdek quyidagi tengliklar bajarilsin:*

$\varphi^{(i)}(0) = 0,\ \psi^{(i)}(0) = 0,\ \ (i = \overline{0,5});\ \varphi^{(i)}(1) = 0,\ \ \psi^{(i)}(1) = 0,\ \ (i = \overline{0,4})$ *va* $\varphi^{(6)}(\rho),\ \psi^{(6)}(\rho)$ *chegaralangan. U holda (12)-(16) teskari masalaning (21), (22), (23) qatorlar yordamida aniqlanadigan yagona yechimi mavjud, bu yerda* $\varphi^{(i)}$, $\psi^{(i)}$ *–* φ *va* ψ *funksiyalarning i-hosilalari.*

Ushbu bobning uchinchi paragrafida turli koeffitsiyentli aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun teskari masala qaralgan.

$G := \{(x,t): 0 < x < l; -\alpha < t < \beta\}$ to‘rtburchak sohada quyidagi aralash parabolo-giperbolik tenglamani qaraymiz:

$$c^2\theta(-t)u_{tt} + \theta(t)u_t = \widehat{D}u_{xx} + f(t)g(x), \quad (24)$$

bu yerda l, α, β – berilgan musbat sonlar, $\widehat{D} = \begin{cases} D, & t > 0 \\ 1, & t < 0 \end{cases}$, θ- Xevisayda funksiyasi, D, c –doimiylar.

(24) tenglama uchun teskari masalani qo‘yamiz.

Teskari masala. Quyida funksional sinflardan:

$$u(x,t) \in C\left(\overline{G}\right) \cap C_{x,t}^{2,1}(G_+ \cup \{t = \beta\}) \cap C^2(G_- \cup \{t = -\alpha\}), \quad (25)$$

$$g(x) \in C[0,l], \quad (26)$$

chegaraviy shartlar:

$$u(0,t) = u(l,t) = 0, -\alpha \le t \le \beta, \quad (27)$$

nolakal shart:

$$u(x,\beta) - u(x,-\alpha) = \varphi(x), 0 \le x \le l, \quad (28)$$

$t = 0$ skleyka sharti:

$$\lim_{t\to+0} u(x,t) = \lim_{t\to-0} u(x,t), \lim_{t\to+0} \frac{\partial u(x,t)}{\partial t} = \lim_{t\to-0} \frac{\partial u(x,t)}{\partial t}, x \in [0,l], \quad (29)$$

shu bilan birga tenglamaning yechimi haqida quyidagi qo‘shimcha ma’lumot berilgan bo‘lsa:

$$u(x,\beta) = \psi(x), \quad 0 \le x \le l, \quad (30)$$

G sohada (24) tenglamaning $u(x,t)$ yechimi va tenglamaning noma’lum o‘ng tomonidagi $g(x)$ funksiya aniqlansin, bu yerda $f(t)$, $\varphi(x)$ va $\psi(x)$ – berilgan yetarlicha silliq funksiyalar, $G_+ = G \cap \{t > 0\}$, $G_- = G \cap \{t < 0\}$.

Agar $\varphi(x), g(x)$ funksiyalar va c, D o‘zgarmaslar ma’lum bo‘lsa, u vaqtda (24)-(29) munosabatlardan $u(x,t)$ yechimni topish masalasiga to‘g‘ri masala deyiladi.

Faraz qilaylik $f(t) = 1$ bo‘lsin. U holda (24)-(30) masalaning yechimini olamiz:

$$u(x,t) = \begin{cases} \sum_{k=1}^{\infty} \left(\lambda_k^{-1}\varphi_k e^{-D\omega_k^2 t} + \frac{g_k}{\omega_k^2} d_k(t)\right) \sin(\omega_k x), & 0 < t < \beta, \\ \sum_{k=1}^{\infty} \left[\left(\lambda_k^{-1}\left(\varphi_k - \frac{g_k}{\omega_k^2}\mu_k\left(\frac{1}{D} - 1\right)\right) + \frac{g_k}{\omega_k^2}\left(\frac{1}{D} - 1\right)\right) cos\left(\frac{\omega_k}{c}t\right) - \right. & (31) \\ \left. -Dc\omega_k\lambda_k^{-1}\left(\varphi_k - \frac{g_k}{\omega_k^2}\mu_k\left(\frac{1}{D} - 1\right)\right) sin\left(\frac{\omega_k}{c}t\right) + \frac{g_k}{\omega_k^2}\right] \sin(\omega_k x), -\alpha < t < 0 \end{cases}$$

va

$$g(x) = \sum_{k=1}^{\infty} \omega_k^2 \left(\frac{\psi_k}{d_k(\beta)} - \frac{\lambda_k^{-1}\varphi_k}{d_k(\beta)} e^{-D\omega_k^2\beta}\right) \sin(\omega_k x). \quad (32)$$

bo‘ladi.

2-izoh. *Qaralayotgan (24)-(30) masala amaliy tadbiqqa ega va gazning truba ichida va undan tashqaridagi harakatini ifodalaydi bu yerda D –diffuziya koeffitsiyenti,* $\frac{1}{c^2}$ *esa gaz tezligi.*

3-izoh. (31), (32) *yechim mavjud bo‘lishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:*

$$\lambda_k \neq 0 \; va \; d_k(\beta) \neq 0,$$

bu yerda

$$\lambda_k = e^{-D\omega_k^2\beta} - cos\left(\frac{\omega_k}{c}\alpha\right) - Dc\omega_k sin\left(\frac{\omega_k}{c}\alpha\right),$$

$$d_k(t) = \frac{1}{D} - \mu_k\lambda_k^{-1}\left(\frac{1}{D} - 1\right)e^{-D\omega_k^2 t}.$$

Quyidagi shartlar o‘rinli bo‘lsin:

$$|\mu_k| = \left|1 - cos\left(\frac{\omega_k}{c}\alpha\right)\right| \leq 2, \qquad e^{-D\omega_k^2\beta} \leq 1, \;\; \left|\lambda_k^{-1}\right| \leq C_0,$$

$$|d_k(\beta)| \geq C_1 > 0,$$

bu yerda

$$\mu_k = 1 - cos\left(\frac{\omega_k}{c}\alpha\right).$$

Teskari masalaning yechimi uchun quyidagi teorema o‘rinli:

5-teorema. *Faraz qilaylik, 3-izohdagi va quyidagi shartlar o‘rinli bo‘lsin:*

(B_1) $\varphi \in C^3[0,l], \varphi^{(4)} \in L_2(0,l) \; va \;\; \varphi(0) = \varphi(l) = 0, \varphi''(0) = \varphi''(l) = 0,$

$$\varphi_k{}^{(4)} = \frac{2}{l}\int_0^l \varphi^{(4)}(x)\sin(\omega_k x)\,dx.$$

(B_2) $\psi \in C^3[0,l], \;\; \psi^{(4)} \in L_2(0,l) \; u \; \psi(0) = \psi(l) = 0, \psi''(0) = \psi''(l) = 0,$

$$\psi_k{}^{(4)} = \frac{2}{l}\int_0^l \psi^{(4)}(x)\sin(\omega_k x)\,dx.$$

U holda (24)-(30) *teskari masala yagona yechimga ega va bu yechim (33)-(34) qator ko‘rinishida ifodalanadi, shuningdek $g(x)$ funksiya uchun quyidagi baho o‘rinli:*

$$\|g\|_{C[0,l]} \leq \overline{C_1}\left\|\psi^{(4)}\right\|_{L_2(0,l)} + \overline{C_2}\left\|\varphi^{(4)}\right\|_{L_2(0,l)}.$$

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun o‘ng tomonni aniqlash haqidagi teskari masalani sonli yechish”** deb nomlanadi, unda nolokal shartli aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun o‘ng tomonni aniqlash haqidagi teskari masalani sonli yechish uchun algoritmlar taklif etilgan. Nolokal shartga kiradigan va qo‘shimcha shartga kirgan funksiyalar tajribalar asosida aniqlanganligi sababli, ular qandaydir xatolik bilan ma’lum bo‘ladi. Sonli yechish uchun uchta algoritm tavsiya etilgan. Taklif etilgan algoritmlarni aprobastiya qilish uchun bir qator sonli eksperimentlar o‘tkazilgan.

Quyidagi differensial tenglamani:

$$\theta(t)u_t(x,t) + \theta(-t)u_{tt}(x,t) - \sigma u_{xx}(x,t) = g(x), \;\; (x,t) \in (0,l) \times (-\alpha,\beta) \tag{33}$$

α, β, l, σ– berilgan musbat sonlar,
chegaraviy shartlar:

$$u(0,t) = 0, \;\; u(l,t) = 0, \;\; t \in [-\alpha,\beta], \tag{34}$$

$t = 0$ da skleyka sharti:

$$u(x,t+0)=u(x,t-0),\quad \lim_{t\to-0}\frac{\partial u(x,t)}{\partial t}=\lim_{t\to+0}\frac{\partial u(x,t)}{\partial t},\quad x\in[0,l] \tag{35}$$

va quyidagi nolokal shart:

$$u(x,\beta)-u(x,-\alpha)=\phi(x),\quad x\in[0,l], \tag{36}$$

bilan qaraymiz. Bunda $g(x)$ uzluksiz va $g(0)=g(l)=0$ deb hisoblaymiz.

(33)-(36) munosabatlar to‘g‘ri masala, ya’ni agar $\phi(x), g(x)$ ma’lum funksiyalar va $\sigma>0$ – berilgan musbat son bo‘lsa, u holda $u(x,t)$ yechim (33)-(36) munosabatlardan aniqlanadi.

Teskari masala. (33)-(36) to‘g‘ri masalaning yechimi haqida quyidagi qo‘shimcha shart ma’lum bo‘lsa:

$$u(x,\beta)=\psi(x),\quad x\in[0,l], \tag{37}$$

(33) tenglamaning o‘ng tomonidagi $g(x)$ funksiya aniqlansin.

(33)-(36) to‘g‘ri masalaning yechimi qator ko‘rinishida ifodalanadi:

$$u(x,t)=\sum_{k=1}^{\infty}u_k(t)sin(\omega_k x),\qquad \omega_k=\frac{\pi}{l}k.$$

Yechimni quyidagi ko‘rinishda yozib olamiz:

$$u(x,t)=\begin{cases}\displaystyle\sum_{k=1}^{\infty}\left(\lambda_k\phi_k e^{-\sigma\omega_k^2 t}+\frac{g_k}{\lambda\omega_k^2}\right)\sin(\omega_k x),\ 0<t<\beta,\\ \displaystyle\sum_{k=1}^{\infty}\left(\lambda_k\phi_k cos(\sqrt{\sigma}\omega_k t)-\sqrt{\sigma}\omega_k\lambda_k\phi_k sin(\sqrt{\sigma}\omega_k t)+\frac{g_k}{\sigma\omega_k^2}\right)\sin(\omega_k x),\ -\alpha<t<0.\end{cases} \tag{38}$$

bu yerda $\lambda_k=\dfrac{1}{e^{-\sigma\omega_k^2\beta}-\left(cos(\sqrt{\sigma}\omega_k\alpha)+\sqrt{\sigma}\omega_k sin(\sqrt{\sigma}\omega_k\alpha)\right)}$.

Uchinchi bobning birinchi paragrafda o‘suvchi ko‘paytuvchili qatorning yig‘indisi hisoblangan.

(33)-(37) teskari masalaning yechimi quyidagi qator ko‘rinishida ifodalanadi:

$$g(x)=\sigma\sum_{k=1}^{\infty}\omega_k^2\left(\psi_k-\lambda_k\phi_k e^{-\sigma\omega_k^2\beta}\right)sin(\omega_k x). \tag{39}$$

Ushbu qatorda o‘suvchi ko‘paytuvchi ω_k^2 bo‘lganligi uchun yig‘indisini hisoblash murakkablik tug‘diradi.

3-ta’rif. *Agar δ (mos metrikada, yetarlicha kichik miqdor) aniqlikda Furye qatori masalaning taqribiy berilganlariga asosan, masalaning ixtiyoriy ε aniqlikdagi yechimini bersa, Furye qatori yig‘indisini hisoblash turg‘un deyiladi.*

(36)-(40) masalaning sonli yechimi sifatida quyidagi qatorni olamiz:

$$g(x)=\sigma\sum_{k=1}^{N_\delta}\omega_k^2\left(\psi_k-\lambda_k\phi_k e^{-\sigma\omega_k^2\beta}\right)sin(\omega_k x),\quad j=\overline{0,N-1}. \tag{40}$$

Hisoblash natijalari 2-rasm (a) da keltirilgan. Ushbu sonli hisoblashda $N_\delta=7$, $N=300$.

Ikkinchi paragrafda dastlab (33)-(37) masala Fredgolmning 1-tur integral tenglamasiga keltiriladi:

$$\sum_{k=1}^{\infty} \frac{g_k}{\omega_k^2} \sin(\omega_k) = \int_0^l K(x,s)g(s)ds,$$

bu yerda

$$K(x,s) = \begin{cases} s\left(1 - \frac{x}{l}\right), & s \le x, \\ x\left(1 - \frac{s}{l}\right), & s > x. \end{cases}$$

Natijada quyidagi Fredgolmning 1-tur integral tenglamasini olamiz:

$$\phi_\beta(x) = \int_0^l K(x,s)g(s)ds, \qquad (41)$$

bu yerda

$$\phi_\beta(x) = \sigma\psi(x) - \sigma \sum_{k=1}^{\infty} \lambda_k \phi_k e^{-\omega_k^2 \beta} sin(\omega_k x).$$

4-izoh. (33)-(37) *teskari masala* (41) *Fredgolmning 1-tur integral tenglamasiga ekvivalent. (41) tenglamaning yadrosi simmetrik va uzluksiz bo‘lganligi uchun (41) tenglama yechimga ega.*

Fredgolmning 1-tur integral tenglamasini yechish uchun bir qator usullar mavjud. (41) integral tenglamani yechish uchun klassik usuldan – Tixonov regulyarizatsiyasi bilan funksionalni minimallashtirish usulidan foydalanamiz:

$$J[g] = \int_0^l \left[\int_0^l K(x,s)g(s)ds - \phi_\beta(x) \right] dx + \varepsilon \int_0^l [g^2(x) + p(g'(x))^2]dx,$$

bu yerda ε va p parametrlar – regulyarizatsiya parametrlari.

Quyidagi masalani

$$h \sum_{j=1}^{N-1} K_{ij} g_j = \phi_\beta(x_i), \qquad i = \overline{1, N-1},$$

sonli usulda xatolik funksionalini

$$J[g] = h \sum_{i=1}^{N-1} \left[h \sum_{j=1}^{N-1} K_{ij} g_j - \phi_\beta(x_i) \right]^2 + \epsilon h \sum_{i=1}^{N-1} g_j^2 +$$

$$+ \epsilon p h \sum_{j=1}^{N-1} \left(\frac{g_{j+1} - g_{j-1}}{2h} \right)^2,$$

minimallashtirish yordamida yechamiz.

Uchinchi paragafda qaralayotgan (33)-(37) masala quyidagi masalaga keltiriladi:

Teskari masala: Agar quyidagi to‘g‘ri masalaning

$$u_t(x,t) - \sigma u_{xx}(x,t) = g(x), \ \ (x,t) \in (0,l) \times (0, \ \beta), \qquad (42)$$

$$u(0,t) = 0,\ u(l,t) = 0,\ t \in [0,\beta], \tag{43}$$

$$u(x,0) = \phi_0(x) + \frac{1}{\sigma}\int_0^l K(x,s)g(s)ds, \tag{44}$$

yechimi haqida qo‘shimcha shart

$$u(x,\beta) = \psi(x),\quad x \in [0,l], \tag{45}$$

ma’lum bo‘lsa, $g(x)$ funksiya aniqlansin.

5-izoh. (33)-(37) *teskari masala* (42)-(45) *masalaga ekvivalent.*

(33)-(37) teskari masala to‘r funksiyasi uchun quyidagi ko‘rinishda yozib olamiz:

$$\frac{u_{i,k+1} - u_{i,k}}{\tau} - \sigma\frac{u_{i+1,k} - 2u_{i,k} + u_{i-1,k}}{h^2} = g_i, i = \overline{1,N-1}, k = \overline{1,K-1}, \tag{46}$$

$$u_{0,k} = 0, u_{N,k} = 0, k = \overline{0,K}, \tag{47}$$

$$u_{i,0} = \phi_0(x_i) + \frac{h}{\sigma}\sum_{j=1}^{N-1} K_{ij}g_j,\ i = \overline{1,N-1}, \tag{48}$$

$$u_{i,K} = \psi(x_i), i = \overline{1,N-1}. \tag{49}$$

(46)-(49) masala quyidagi xatolik funksionalini minimallashtirish yordamida yechiladi:

$$J[g] = h\sum_{i=1}^{N-1}[u_{i,K} - \psi(x_i)]^2.$$

Uchinchi bobda teskari masalani yechish uchun uchta algoritm tavsiya etildi:

• 1-algoritm koeffitsiyentlari ω_k^2 o‘suvchi ko‘paytuvchiga ega Furye qatorini yig‘indisini regulyarizatsiyalashga asoslangan;

• 2-algoritm 1-tur Fredgolm integral tenglamasini Tixonov regulyarizatsiyasi bilan yechish usuliga asoslangan;

• 3-algoritm maxsus parabolik tenglamaga qo‘yilgan teskari masalani yechishga asoslangan.

Sonli hisoblash natijalari quyidagi rasmda keltirilgan.



2-rasm: g(x) funksiyani tiklash natijalari aniq yechim punktir chiziq bilan berilgan, uzluksiz chiziq bilan – tiklangani.
(a) –1-algoritm natijasi, (b) –2-algoritm natijasi, (c) –3-algoritm natijasi.

XULOSA

Dissertatsiyada aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun manbani aniqlash teskari masalalarining korrektligi tadqiq qilindi.

Asosiy tadqiqot natijalari quyidagilardan iborat:

1. Aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamaga qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masala uchun ayirmali sxema qurilgan, chekli ayirmali sxemaning turg‘unligini va approksimatsiya tartibi haqidagi teoremalar isbot qilingan;
2. Bessel operatorli aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun noma’lum manbani aniqlash to‘g‘ri va teskari masalalari tadqiq etilgan. Yechimning yagonaligi va mavjudligi haqidagi teoremalar isbot qilingan;
3. aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamaga qo‘yilgan teskari masalaning bir qiymatli yechilishi haqidagi teorema isbot qilingan;
4. Aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun manbani aniqlash teskari masalasini sonli yechish uchun uchta algoritmdan foydalanilgan va algoritmlarni aprobatsiya qilish uchun bir qator sonli tajribalar o‘tkazilgan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM.86.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ИНСТИТУТА МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МЕРАЖОВА ШАХЛО БЕРДИЕВНА

ИССЛЕДОВАНИЕ КОРРЕКТНОСТИ ОБРАТНЫХ ЗАДАЧ ОБ ИСТОЧНИКЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЙ СМЕШАННОГО ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА

01.01.02 – Дифференциальные уравнения и математическая физика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Бухара – 2023

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2022.4.PhD/FM695.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (https://kengash.mathinst.uz/) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель:	**Дурдиев Дурдимурод Каландарович** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Ашуров Равшан Раджабович** доктор физико-математических наук, профессор
	Карчевский Андрей Леонидович доктор физико-математических наук, профессор (Россия)
Ведущая организация:	**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится « 14 » марта 2023 года в 16:00 часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 при Институте Математики имени В.И. Романовского. (Адрес: 100174, г.Ташкент, Алмазарский район, ул Университетская, 9. Тел.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz , Website: www.mathins.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Математеки имени В.И.Романовского (зарегистрирована за № 156). (Адрес: 100174, г.Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9. Тел. (+99871) 207-91-40).

Автореферат диссертации разослан « 28 » февраля 2023 года.
(протокол рассылки № 2 от « 28 » февраля 2023 года).

У.А.Розиков
Председатель научного совета по присуждению научных степеней, д.ф.-м.н., профессор

Ж.К.Адашев
Ученый секретарь научного совета по присуждению научных степеней, д.ф.-м. н., старший научный сотрудник

А.А.Аъзамов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению научных степеней, д.ф.-м.н., академик

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Многие научно-прикладные исследования, проводимые в мировом масштабе, в некоторых случаях сводятся к исследованию корректности обратных задач по определению источника для смешанных дифференциальных уравнений в частных производных. На сегодняшний день в геологии, электродинамике, газодинамике, процессах распространения волн, геофизике и многих других областях обратные задачи для смешанных дифференциальных уравнений в частных производных составляют основу исследуемых задач. Определение решения обратной задачи основываясь на дополнительную информацию о решении прямой задачи, проведение исследований по численному решению прямых и обратных задач, на сегодняшний день остается одной из важных задач математической физики.

В настоящее время во всем мире проводятся исследования в бурно развивающемся направлении математической физики, посвященным методам исследования обратных задач. Эта область стала одной из важнейших проблем в физике и технических науках, поскольку решение этих проблем позволяют находить параметры, которые не могут быть определены напрямую. Это направление имеет применение во многих областях. Прямые и обратные задачи для уравнений смешанного типа являются актуальными с точки зрения приложений. Таким образом, возникает необходимость исследования корректности прямых и обратных задач для уравнения смешанного параболо-гиперболического типа. В приложениях нахождение решений прямых и обратных задач, поставленных для уравнений смешанного параболо-гиперболического типа, являются целенаправленными научными исследованиями. Именно такие актуальные научные проблемы и исследуются в этой диссертационной работе.

В нашей Республике уделяется большое внимание современным направлениям математической физики, имеющим научное и практическое применение в фундаментальных науках. В частности, в последние годы особое внимание уделяется прикладному применению путем исследования начально-граничных задач для дифференциальных уравнений смешанного параболо-гиперболического типа, описывающих процессы в газодинамике и решением для них прямых и обратных задач. Достигнуты значительные результаты по доказательству существования, единственности решения и по численному решению обратных задач для уравнений смешанного параболо-гиперболического типа. Проведение исследований на уровне мировых стандартов по приоритетным направлениям дисциплин «Дифференциальные уравнения и математическая физика, теория динамических систем» обозначены как основные цели и направления деятельности исследователей[1]. В связи с этим представляется важным развитие теории обратных задач для

[1] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 мая 2017 года №292 «О мерах по организации деятельности вновь созданных научно-исследовательских учреждений Академии наук Республики Узбекистан».

смешанных дифференциальных уравнений математической физики.

Исследования, проводимые в рамках данной диссертационной работы, соответствуют решению задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О стратегии действия по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», в постановлениях ПП№4387 от 9 июля 2019 года «О мерах государственной поддержки дальнейшего развития математического образования и науки, а также коренного совершенствования деятельности Института Математики имени В. И. Романовского Академии Наук Республики Узбекистан» и №ПП-4708 от 7 мая 2020 года «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики», и в других нормативно-правовых актах, касающихся фундаментальной науки.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии в республике. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан IV. «Математика, механика и информатика».

Степень изученности проблемы. Во многих случаях исследование тех или иных явлений природы можно привести к нахождению решений уравнений с частными производными, носящих название уравнений математической физики. Для уравнений математической физики существует классификация. По сравнению с уравнениями гиперболического, эллиптического и параболического типов, теория смешанных уравнений имеет сравнительно недолгую историю. Впервые смешанные уравнения с двумя независимыми переменными были систематически исследованы итальянскими математиками Ф. Трикоми и М. Чибрарио. Далее уравнения смешанного типа изучались многими математиками, в частности, им уделялось большое внимание в научных школах М.А.Лаврентьева, А.В. Бицадзе, М.С.Салахитдинова и Т.Д. Джураева. Уравнения смешанного типа нашли многочисленные применения — например, в задачах, связанных с трансзвуковой газовой динамикой.

